

## TAJRIBADAGI MAHALLIY POPULYATSIYADAGI URG‘OCHI QUYONLARNING QON TAHLILI VA KO’RSATKICHLARI

*Yusupov Otajon Yo’ldosh o’g’li<sup>1</sup>.*

*Samarqand davlar veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Toshkent filiali (PhD) tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mahalliy populyatsiuadagi urg‘ochi quyonlarning qochirishdan oldin, homiladorlik va tug‘gandan keyingi qon tarkibidagi shaklli elementlarni tahlil qilindi va bu ko’rsatkichlar quyonlarning rezistentligi (chidamlilik darajasi) va tashqi muhitga moslashuvchanligi ko’rsatiladi.

**Kalit so’zlar.** Gemotologik ko’rsatkichlar, eritrosit, gemoglobin, leykotsit, gemokrit, mahalliy quyon, ona quyon, urg‘ochi quyon.

**Abstract.** In this article, the compositional elements in the blood of female rabbits of the local population before escape, during pregnancy and after birth were analyzed, and these indicators indicate the resistance (endurance level) and adaptability of rabbits to the external environment.

**Key words.** Hematological indicators, erythrocyte, hemoglobin, leukocyte, hemocrit, local rabbit, mother rabbit, female rabbit.

**Kirish.** Har bir chorvador xo‘jalik yuritishda oqilona usullarni qo‘llashni, ya’ni kam xarajat texnologiyalarni joriy etish evaziga sifatli, raqobatbardosh eksportbop maxsulot etishtirish yo‘llari to‘g‘risida izlanishlar olib borishlari kerak. Fermer xo‘jaliklarida, aholi xonadonlarida, yordamchi xo‘jaliklarda quyonchilikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun barcha toifadagi xo‘jaliklarda imkoniyatlar yetarli.

Onalik sifati va uyadagi quyonlarning yashovchanligi quyonlarni seleksiyalashda muhim belgi hisoblanadi. Quyonlarda onalik sifatining namoyon bo‘lishini o‘rganish nafaqat shaxsiy tomorqa quyonchilik xo‘jaliklari uchun, balki

sanoat miqyosidagi quyonchilik tarmog‘i uchun ham muhim sanaladi. Quyon bolalari o‘n kunlik yoshigacha ko‘zi yumiq holda bo‘ladi. 19-20 kunligidan uyadan chiqib, mustaqil ravishda ozuqa granulalarini yeya boshlalaydi. Agar ona quyon bolalarini yetaricha emizmasa, uya juda issiq bo‘lsa, yoki harorat juda past bo‘lsa quyon bolalari uyadan ertaroq chiqishlari ham mumkin.[ 2. 223 b].

Tarkibida oqsil miqdori qo‘y, mol, cho‘chqa go‘shtlariga qaraganda yuqori, vitamin va minerallari ko‘p. Quyon go‘shti tarkibidagi vitaminlar va temir, fosfor, kobalt, marganets, ftor, kaliy moddalarini boshqa hech qaysi go‘sht bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.[4. 7-9 b]

Quyonlarning bo‘g‘ozlik davri qisqa bo‘lganligi jihatidan boshqa turdagি qishloq xo‘jaligi hayvonlaridan keskin farq qiladi. Ular embrion davrida va tug‘ilgandan keingi dastlabki 3-3,5 oy ichida jadal o‘sadi 4-5 oylik yoshida voyaga yetadi va quyon bolalari beradi. Yil davomida intensiv bola olishda foydanalinsa o‘rtacha 72-80 kg go‘sht ishlab chiqarish mumkin.[3. 10-15 b].

### **Tajriba olib borish metodlari va natijalari**

Quyonchilik seleksiyasi va genetika markaziga olib kelningan, mahalliy populyasiyadagi urg’ochi quyonlarining qon taxlili Toshkent viloyatining Qibray tumani Quyonchilik seleksiyasi va genetika markazi laboratoriyasida qonning gematologik ko‘rsatkichlari zamonaviy Mindray BC-20s avtomatik gematologik (analizatorda) qon ko‘rsatkichlarini o‘rganildi.

Qon organizmda juda muhim ko‘plab murakkab funksiyalarni bajaradi, moddalar almashinuvni jarayonida qatnashib organlar va to‘qimalarni to‘yimli moddalar bilan ta’minlaydi. Organizmda suv me’yorini ushlab turadi va hujayralarda kechayotgan jarayonlarga oziq moddalar va suv ta’mintini, shu bilan birga moddalar termoregulyasiyasini hamda transportirovkasini amalga oshiradi. Shu bois tadqiqotlarda tajribadagi, mahalliy populyasiyadagi ona quyonlarining qonini tarkibini o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tajribamizning asosiy vazifalaridan biri quyonlar qonining gematologik va biokimiyoviy tarkibi ko‘rsatkichiga qarab ularni tashqi muhitga

moslashuvchanligi, hamda rezistentligi (chidamlilik darajasi) tashqi muhitga moslasha olishiga baho berish mumkin. Tajribadan olingan ma'lumotlarga asoslanib mahalliy populyasiyadagi urg'ochi quyonlardan olingan duragay avlodlarning kuz faslidagi qon tarkibidagi leykotsit miqdori  $9,04^{10*9/L}$  tashkil qilib, me'yor darajasiga solishtirganda fiziologik me'yor darajasining yuqori ko'rsatkichlariga yaqinlashganligini ko'rshimiz mumkin. Qon tarkibidagi shaklli elementlari leykotsitlar organizmga tushgan yod viruslar va bakteriyalarni fagatsitar usulda o'ldirib, butun tanani immun himoya tizimini nazorat qiladi. Limfotsitlar soni  $53,05^{10*9/L}$  tashkil qilib, qon tarkibidagi leykotsitlarni oshganligi sababli limfotsitlar soni ham oshgan. Bu shuni ko'rsatadiki bino ichida organizm uchun yod bo'lgan unsurlarni yuqoriligidan dalolat beradi. Shunga qaramasdan quyon organizmi immun tizimi fiziologik me'yor darajasida bo'lganligini ko'rshimiz mumkin.

### 1-jadval

Urg'ochi quyolarning qon tarkibini gematologik ko'rsatkichlari (n=15)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi simvoli- kasi	O'lchov Birligi	Me'yori	Qochirishdan oldin	Bo'g'ozlik davrida
Leykotsitlar soni	WBC	$10^{*9/L}$	5-12,5	$9,04\pm0,29$	$6,55\pm0,32$
Limfotsitlar soni	Lymph#	$10^{*6/L}$	30-85	$53,05\pm1,32$	$49,90\pm1,3$
Eritrotsitlar soni	RBC	$10^{*12/L}$	5-8	$5,64\pm0,33$	$6,04\pm0,39$
Gemoglobin Miqdori	HGB	g/l	17-24	$20,2\pm0,59$	$20,70\pm0,62$
Gemokrit ko'rsatkichi	HCT	%	33-50	$38,70\pm0,97$	$35,81\pm1,17$

Eritrotsitlar xajmi	MCV	%f/l	29-37	33,74±0,89	34,11±0,78
O‘rtacha eritrotsitdagи gemoglobiн	MCH	p/g	17-24	19,3±0,50	21,07±0,43
Trombotsit	PLT	10 <sup>*9</sup> /L	2,5-6,5	4,24±0,24	3,99±0,31

Tajribadagi 15 bosh F<sub>1</sub> duragay quyonlarni qochirishdan avval olingan qon ko‘rsatkichlari WBC leykotsitlar soni 9,04±0,29  $10^{*9}/L$ , Lymph# limfotsitlar soni 53,05±1,32  $10^{*9}/L$ , RBC eritrotsitlar soni 5,64±0,33  $10^{*12}/L$ , HGB gemoglobin konsentratsiyasi 20,2± 0,59 g/l, HCT gemokrit 38,70±0,97%, MCV eritrotsitlar xajmi 33,74±0,89 %f/l, MCH o‘rtacha eritrotsitli gemoglobiн 19,3±0,50 p/g, PLT trombotsit 4,24±0,24  $10^{*9}/L$  qondagi shaklli elementlar o‘rtacha tashkil qildi. Bu ko‘rsatkichlar bo‘g‘ozlik davriga kelib quyidagicha bo‘ldi: WBC leykotsitlar soni 6,55±0,32  $10^{*9}/L$ , Lymph# limfotsitlar soni 49,90±1,3  $10^{*9}/L$ , RBC eritrotsitlar soni 6,04±0,39  $10^{*12}/L$ , HGB gemoglobin konsentratsiyasi 20,7± 0,62 g/l, HCT gemokrit 35,81±1,17 %, MCV eritrotsit xajmi 34,11±0,78%f/l, MCH o‘rtacha eritrotsitli gemoglobiн 21,07±0,43 p/g, PLT.

## 2-jadval

Urg‘ochi quyolarning qon tarkibini gematologik ko‘rsatkichlari (n=15)

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi simvo-likasi	O‘lchov Birligi	Me’yori	Sut emizish Davrida	
				avgust	Sentyabr
Leykotsitlar soni	WBC	$10^{*9}/L$	5-12,5	9,61±1,27	9,48±1,64
Limfotsitlar soni	Lymph#	$10^{*6}/L$	30-85	57,4±2,07	54,121±1,81
Eritrotsitlar soni	RBC	$10^{*12}/L$	5-8	4,82±1,09	5,39±1,3
Gemoglobin		g/l			18,64±1,09

miqdori	HGB		17-24	17,99± 0,5	
Gemokrit ko‘rsatkichi	HCT	%	33-50	36,81±1,54	40,53±1,55
Eritrotsitlar xajmi	MCV	%f/l	29-37	30,64±0,63	30,29±0,92
O‘rtacha eritrotsitdagi gemoglobulin	MCH	p/g	17-24	18,3±0,98	19,99±1,28
Trombotsit	PLT	10 <sup>*9</sup> /L	2,5-6,5	2,55±2,7	2,48±2,52

Tajribadagi 10 bosh F<sub>1</sub> duragay quyonlarni o‘rtacha sut emizish davrida olingan qon ko‘rsatkichlari WBC leykotsitlar soni avgust oyida 9,61±1,27  $10^{*9}/L$ , tashkil qilib, bo‘g‘ozlik davriga nisbatan 2,93  $10^{*9}/L$  ortgan Lymph# limfotsitlar soni 57,4±1,81  $10^{*9}/L$ , 12,64 %-ga ortgan RBC eritrotsitlar soni 4,82±1,09  $10^{*12}/L$ , tashkil qilib 1,22  $10^{*12}/L$  kamaygan, o‘z navbatida eritrotsitlarning miqdorini 2,71 g/l, kamayishi kuzatildi.

### 3-jadval

Urg‘ochi quyonlarning bolasini ajratgandan so‘ng qon tarkibini gematologik ko‘rsatkichlari (n=10)

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi simvolikasi	O‘lchov birligi	Me’yori	Tinch davrida Sentabr
Leykotsitlar soni		$10^{*9}/L$	5-12,5	6,70±0,23
Limfotsitlar soni	Lymph#	$10^{*6}/L$	30-85	51,7±0,95
Eritrotsitlar soni	RBC	$10^{*12}/L$	5-8	4,95±0,29
Gemoglobin miqdori	HGB	g/l	17-24	18,5± 0,70

Gemokrit ko'rsatkichi	HCT	%	33-50	37,5±0,90
Eritrotsitlar xajmi	MCV	%f/l	29-37	34,2±0,80
O'rtacha eritrotsitdagi gemoglobulin	MCH	p/g	17-24	20,1±0,50
Trombotsit	PLT	10 <sup>*9</sup> /L	2,5-6,5	3,79±0,27

Kuz fasliga kelib tajribadagi ona quyonlarning qon gematologiyasi o'zgarishini o'r ganilganda 10 bosh quyondan namuna sifatida qon olinib, olingan qon gematologik namunasining o'rtacha ko'rsatkichlari qo'yidagicha bo'lganligi kuzatildi. Ona quyonlarni qon ko'rsatkichlari sut emizish davri tugab tinch davrida WBC leykotsitlar soni oktyabr va noyabr oyalarida o'rtacha  $6,70\pm0,23 \text{ } 10^{*9}/\text{tashkil}$  qilib, sut emizish davriga nisbatan  $2,85 \text{ } 10^{*9}/\text{kamaygan}$  Lymph# limfotsitlar soni  $51,7\pm0,95/10^{*9}/\text{L}$  yoki  $4,1/10^{*9}$  kamaygan, RBC eritrotsitlar soni  $0,15/10^{*12}/\text{L}$  kamayganligi kuzatildi. Ona quyonlarning tinch davridagi qon gematologiyasi ko'rsatkichlari sut emizish davriga nisbatan kamayganligi va qonning me'yoriy ko'rsatkichlarga yaqinlashganligini guvohi bo'ldik.

**Xulosa.** Olingan qon taxlillarining xulosasi shuni ko'rsatadiki sut emizish davrida qonning organizmni himoyalovchi leykotsitlar miqdorini ortishi birinchidan sut berish davrining boshlanishi va ikkinchidan yosh o'suvchi quyon bolalarini immun sistemasini oshirish va ularning yashovchanligini saqlab qolish uchun ona quyonlar qoni tarkibida leykotsitlar miqdorini oshganligiga guvoh bo'ldik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. K.I.Xidirov, F.S.Allashev, Tajribadagi mahalliy populyasiyadagi quyonlarning tana ekstereri ko'rsatkichlari Chorvachilik va Nasilchilik ishi jurnali, №1, mart Toshkent 2023 y
2. Plotnikov, V.G., Firsova N.M . Quyonlarni ko'paytirish, oziqlantirish va saqlash. – M.: Agopromizdat, 1989. – 223 b.

3. R.I.Ruziev, D.Q.Yuldashev, K.I.Xidirov, F.B.bahriiddinov, F.S.Allashev QUYONLARNI SAQLASH, OZIQLANTIRISH VA NASLCHILIK ISHLARI MONOGRAFIYA “FAN ZIYONET” NASHRIYOTI Toshkent 2023 10-15.b.
4. Xolmatov A.X Quyonchilik 100 kitob to‘plami 81-kitob 2021y 7-9 b.